

*Usanova Muxlisa
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti Sharq sivilizatsiyasi va
falsafa fakulteti Antropologiya
va etnologiya yonalishi
3-kurs hind-ingliz guruhi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asaridagi mamlakatlararo munosabatlar masalasi tahlil etiladi. Asarda XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Eronga tutash hududlar hamda Hindiston bilan bog‘liq bo‘lgan siyosiy, harbiy va diplomatik aloqalar keng yoritilgan. Boburning Shayboniyalar, Safaviylar hamda hind sultonliklari bilan olib borgan siyosati, elchilar yuborish amaliyoti, harbiy ittifoqlar va sulh bitimlari haqida muhim tarixiy ma’lumotlar berilgan. Maqolada, shuningdek, mamlakatlararo madaniy va iqtisodiy aloqalar, savdo yo‘llarining ahamiyati hamda ilmiy-madaniy almashinuvlar masalasi ham alohida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida “Boburnoma” manba sifatida o‘rganilib, undagi xalqaro munosabatlar haqida tasvirlangan real voqeliklar tarixiy-kontekstual yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ushbu maqola Bobur davrining xalqaro munosabatlar tizimini chuqur anglash, o‘zaro ta’sir va qarama-qarshiliklarni baholashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boburnoma, xalqaro munosabatlar, Shayboniyalar, Safaviylar, hind sultonliklari, diplomatik aloqalar, elchilik, harbiy ittifoq, savdo yo‘llari, madaniy almashinuv, siyosiy tahlil.

Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan “Boburnoma” asari turkiy tillarda yaratilgan yirik tarixiy-biografik manbalardan biri bo‘lib, nafaqat muallif hayot yo‘li, balki XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo va unga tutash hududlardagi siyosiy, harbiy va diplomatik jarayonlar haqida qimmatli ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan. Ushbu asar, ayniqsa, Bobur hayoti davomida turli davlatlar bilan olib borgan siyosiy aloqalar, diplomatik bitimlar, harbiy yurishlar va madaniy-iqtisodiy aloqalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mavzuning dolzarbligi, bir tomonidan, tarixiy voqealarni real muallif nigohi orqali anglash imkoniyatida, ikkinchi tomonidan esa, zamonaviy xalqaro munosabatlar paradigmasini tushunishda tarixiy o‘xshashliklar orqali tahlil qilish zaruriyatidadir.

Boburning siyosiy faoliyati o‘sha davrning murakkab geopolitik muhitida kechdi. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida Markaziy Osiyo, Eron, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida bir qancha yirik siyosiy kuchlar shakllangan edi.

Ularning har biri o‘z hududiy manfaatlarini ko‘zlab harakat qilgan. Bobur esa Farg‘ona vodisidagi meros taxti – Andijonni saqlab qolish, uni kengaytirish va o‘z siyosiy hukmronligini tiklash maqsadida faol harakat qilgan. Ushbu jarayonda u turli davlatlar va hukmdorlar bilan do‘stona hamda qarama-qarshi munosabatlarga kirishgan. Bu aloqalar harbiy janglar, diplomatik vositalar, siyosiy ittifoqlar, ayrim hollarda esa, sulk va kelishuvlar orqali shakllangan.

Boburning Shayboniyalar bilan munosabatlari ayni davr Markaziy Osiyo tarixining eng muhim siyosiy to‘qnashuvlaridan biridir. Shayboniy Muhammadxon va uning vorislari tomonidan Movarounnahrda barpo etilgan Shayboniyalar davlati Bobur uchun eng yirik raqib edi. Bobur bir necha marotaba Andijon va Samarqandni qaytarib olishga uringan, ammo Shayboniyalar bilan kurashlar ko‘pincha muvaffaqiyatsiz tugagan. “Boburnoma”da bu kurashlar tafsiloti realistik, bexosiyat til bilan tasvirlanadi. Bobur Shayboniyarlarni tanqid qilgan, ularning siyosiy yurishlarini ochiq bayon qilgan, ayni paytda ularning harbiy salohiyatini ham e’tirof etgan. Boburning Samarqand uchun olib borgan kurashlari mamlakatlararo raqobat, siyosiy ta’sir doirasi va davlat suvereniteti kabi muhim tushunchalar doirasida baholanishi mumkin.

Eron Safaviylari bilan bo‘lgan munosabatlar esa biroz boshqacha yo‘nalishda rivojlangan. Bobur Safaviylar bilan muayyan muddat siyosiy yaqinlikka erishishga intilgan. Safaviylar – shia mazhabiga asoslangan davlat bo‘lib, ularning sunniy Movarounnahr hokimlari bilan raqobati mavjud edi. Bobur, garchi sunniy mazhabga mansub bo‘lsa-da, Eron bilan ma’lum darajada siyosiy ittifoq tuzishga harakat qilgan. Bu holat “Boburnoma”da ochiq tasvirlangan bo‘lib, unda Bobur Safaviylar tomonidan yuborilgan elchilarni qabul qilgani, ular bilan yozishmalari va sovg‘a-salomlar almashuvi haqida ma’lumotlar bor. Shuningdek, u Eronda bo‘lgan paytida safaviy siyosati va madaniyatiga e’tibor bilan qaragan. Safaviylar bilan aloqa qilish orqali Bobur o‘z pozitsiyasini mustahkamlash, Shayboniyalar tahdidiga qarshi tura olish niyatida bo‘lgan.

Hindiston hududidagi sultonliklar, ayniqsa, Lodiylar sulolasiga bilan bo‘lgan munosabatlar Bobur uchun tarixiy burilish nuqtasiga aylandi. Afg‘onlar boshqaruvidagi Dehli sultonligi ichki ziddiyatlar, korrupsiya va noroziliklar girdobida bo‘lgan bir vaqtida Bobur Shimoliy Hindistonga yurish boshlaydi. 1526-yilda Panipat jangida Ibrohim Lodi ustidan qozonilgan g‘alaba Bobur uchun nafaqat harbiy yutuq, balki xalqaro maydonda tan olingan siyosiy muvaffaqiyat edi. Bu jangdan so‘ng Bobur Hindistonda o‘z sulolasiga asos solgan va yirik imperiyani barpo etgan. “Boburnoma”da bu davr voqealari chuqr tasvirlanib, hind zodagonlari, yerli aholining munosabati, siyosiy ahvol va diplomatik harakatlar tafsilotlari keltirilgan.

Diplomatik munosabatlar “Boburnoma”da alohida o‘rin tutadi. Bobur elchilar yuborish, sovg‘alar almashtirish, harbiy va siyosiy ittifoqlar tuzish, shartnomalar imzolash orqali mamlakatlararo aloqalarni shakllantirgan. Asarda diplomatik odob,

muzokara madaniyati va siyosiy muomala shakllari haqida qimmatli tarixiy dalillar uchraydi. Bu jihatlar Boburning siyosiy masalalarga faqat kuch bilan emas, balki diplomatik yondashuv orqali yechim topishga intilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Dehli sultonni bilan bo‘lgan aloqalarda Bobur taktik siyosat yuritgan, o‘z elchilarini yuborib, sulh taklif qilgan, biroq rad javobidan so‘ng harbiy kuch bilan yondashishga majbur bo‘lgan.

Bobur davridagi mamlakatlararo aloqalarda madaniy va iqtisodiy omillar ham muhim rol o‘ynagan. Karvon yo‘llari, savdo almashinuvlari, hunarmandchilik mahsulotlari va kitoblar almashuvi orqali Bobur o‘z atrofi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlab borgan. Ayniqsa, hind madaniyati bilan tanishgan Bobur o‘z asarida bu yurtning ob-havosi, o‘simglik va hayvonot olami, xalqning urf-odatlari haqida batafsil ma’lumotlar keltiradi. Bu holat madaniy qarashlarning kengligi, boshqa xalqlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ochiqlikni ko‘rsatadi. Shuningdek, ilm-fan, adabiyot va san’at sohasi vakillari bilan aloqa ham Bobur siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” asari mamlakatlararo munosabatlarni o‘rganishda noyob tarixiy manba sifatida baholanishi mumkin. Undagi voqealar real shaxs tomonidan yozilgani, ularning batafsil va ishonchli tasvirlanishi tarixiy tahlil uchun katta imkoniyat yaratadi. Boburning Shayboniylar, Safaviylar va Hindiston sultonliklari bilan bo‘lgan munosabatlari zamirida faqat harbiy emas, balki diplomatik va madaniy yondashuvar ham mujassam. Bugungi globallashuv va xalqaro siyosiy integratsiya sharoitida Bobur kabi tarixiy shaxslarning tajribasi zamonaviy xalqaro munosabatlar, siyosiy yetakchilik va madaniyatlararo muloqotni anglashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobur, Z.M. *Boburnoma* (O‘zbek tilidagi tarjima), Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.
2. Karimov, I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*, Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Bartold, V.V. *Turkestan v epokhu mongolskogo nashestviya*, Moskva: Nauka, 1963.
4. Avezov, A. *Boburnoma – tarixiy manba sifatida*, “Sharq yulduzi” jurnali, 2005, №2.
5. Qosimov, B. *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*, Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
6. Bregel, Y. *An Historical Atlas of Central Asia*, Leiden: Brill, 2003.
7. Dale, S.F. *The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India*, Brill Academic Publishers, 2004.